

“XURLIXO –HAMRO” DOSTONINI O‘QUVCHILARGA O‘RGATISHNING METOD VA USULLARI

Nietbaeva H.A.

Nizomiy nomidagi TDPU magistri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19882627>

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Xurlixo – Hamro” dostonini o‘quvchilarga o‘rgatishning metod va usullari tahlil qilinadi. Xususan, musiqa maktablarida baxshichilik san‘atini o‘rgatish jarayonida qo‘llaniladigan an‘anaviy ustoz-shogird tizimi, tinglab o‘rganish, matn ustida ishlash, bosqichli o‘rgatish hamda interfaol metodlarning pedagogik ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning ijrochilik mahoratini shakllantirishda individual yondashuv va zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida dostonni o‘rgatishda nazariy va amaliy uyg‘unlikni ta‘minlash o‘quvchilarning badiiy tafakkuri va milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini rivojlantirishda muhim omil ekanligi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: baxshichilik, doston, “Xurlixo – Hamro”, musiqa ta‘limi, metod, ustoz-shogird, ijro mahorati, interfaol usullar.

KIRISH

Bugungi kunda milliy madaniy merosni asrab-avaylash va uni yosh avlod ongiga singdirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o‘zbek va qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodining muhim qismi bo‘lgan dostonchilik san‘ati, jumladan, “Xurlixo – Hamro” dostoni o‘zining boy badiiy mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati va musiqiy ifoda vositalari bilan alohida e‘tiborga loyiqdir.

Ushbu dostonni musiqa maktablarida o‘quvchilarga o‘rgatish nafaqat ijrochilik ko‘nikmalarini shakllantirish, balki ularning estetik didi, tafakkuri va milliy qadriyatlarga bo‘lgan hurmatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Musiqa ta‘limi jarayonida dostonlarni o‘rgatish o‘ziga xos metodik yondashuvni talab etadi. Chunki bu jarayon nafaqat matnni yod olish, balki uning mazmunini anglash, obrazlarni his etish va ijro jarayonida badiiy ifodalashni ham o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, musiqa maktablarida darslarning individual shaklda olib borilishi o‘quvchilarning qobiliyati, ovoz imkoniyati va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda maxsus metod va usullarni qo‘llashni taqozo etadi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada “Xurlixo – Hamro” dostonini o‘quvchilarga o‘rgatishda samarali bo‘lgan metod va usullarni aniqlash, ularning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish asosiy maqsad qilib belgilandi.

“Hurlixa-Hamro” dostoni qoraqalpoq xalqi orasida qadim zamonlardan beri keng tarqalgan dostonlardan biridir. Shuningdek, ushbu syujet asosidagi poetik asarlar O‘rta Osiyo, Qozog‘iston, Zakavkazye va Yaqin Sharq mamlakatlarida ham keng yoyilgan.

Mashhur olim Arminius Vámbéry “Hurlixa-Hamro” kitobi va dostoni haqida fikr yuritar ekan, uning butun O‘rta Osiyo bo‘ylab keng tarqalganini ta‘kidlab, uni “Tatar Adonisi” deb atagan.

Dostonning ilk ilmiy yozib olinishi va nashr qilinishi o‘tgan asrda akademik Vasily Radlov tomonidan amalga oshirilgan. U dostonning qisqartirilgan ikki variantini qozoq va uyg‘ur tillarida chop ettirgan.

Qozoq va uyg'ur variantlari turkman hamda qoraqalpoq variantlariga asosiy konfliktlari, kompozitsion ketma-ketligi, voqeani bayon etish uslubi hamda bosh qahramonlar taqdiri jihatidan juda yaqin hisoblanadi.

Bundan tashqari, dostonning bir qancha litografik nusxalari ham nashr qilingan. 1917-yildagi Oktyabr inqilobidan so'ng esa doston turkman tilida Ashxobodda 1941, 1950 va 1957-yillarda chop etilgan.

‘Hurlixo-hamro’ning bir necha qoraqalpoqcha variantlari ijrochilardan yozib olindi. Shu singari baxshilar bilan qissaxonlarning qo'lida va yodida yozib olinmagan bir necha variantlari bor. Hozirgacha ‘hurlixo-hamroni ijro qilgan baxshi va qissaxonlarning son tablicasi yuzdan oshib ketdi. Dostonning bir varianti 1962-yili atoqli juman baxshining o'g'li Jan'aboy Jumanovdan, ikkinchi varianti baxshi S. Sadiqovdan yozib olindi. Shulardan A'. Jamolovning baxshi Madireyim Matjanovdan yozib olingan nusqasi hozirgi ommalashyotgan variantning asosi bo'ldi. Madireyim atoqli Arzi baxshini ko'p tinglab, uning baxshichilik yo'lini o'rganish bilan birga shu dostonni yod olgan va uzoq yillar davomida ijro qilib kelgan.

‘Hurlixo-hamro’da boshqa dostonlardagidek ikki qarama-qarshi kuch yaxshilik va yomonlik kurashi yaqqol ko'rinib turadi. Bunda to'g'ri kelgan qora kuchdan ko'ra hiylakorlik, sotqinlik bosimroq. Bu yomonliklarni qahramonlar boshqa yurtdan izlamay, o'z qardoshlaridan; Hamro og'alaridan, Hamroning sevgan yori Hurlixo esa opasidan topadi.

Shuning uchun o'z boshining g'amidan boshqani o'ylamaydigan ochko'z, qizg'anishdan hardoim kuyib yuradigan og'alari ezgu niyatli, qayr-saxovatli Hamroga qarama-qarshi turadi. Hamro Shinmashin xalqiga qilgan yaxshiliklari uchun ko'pchilikning o'tinchi bilan uning jonini Azroyildan omon olib qoladi.

Asosiy qism: Dostonning syujetlik farqi umuman romantikalik dostonlarning mazmuni bilan o'xshash bo'libgina qo'ymasdan, barcha charq xalqlarining sehrli-fantastik ertaklarining mazmuni bilan yaqin bog'likda keladi. Bu ayniqsa dostonning ikkinchi bo'limida yaqqol ko'zga tushadi. Asardaborliqdan tashqari kuchlar, sehrli kuchga ega bo'lgan ilohiy qushlar, dovlar, parilar oddiy personajlar sifatida arenaga chiqadi. Shulardan bittasi Hamroning sevgani Hurlixo, u o'lmaydigan qilib yaratilgan. Yer yuzidagi sehrli hunarlarni egallab, har xil qushlarni pariylar etib, qudratli dovlarni gapirtirib xizmat qildiradi. Dostondagi zamon xarakterini ochib beradigan ko'p belgilardan biri-vazir, mulla aka, iyshon, qozi va saroy xizmatkorlari obrazida ijtimoiy motivlarning ketma-ketlik bilan tasvirlanishi bo'lib hisoblanadi. Dostonda odil zamon haqida hadol odamlarning bosh qo'shishi orqali zamoni o'zgartirish haqidagi orzu-umidlari olg'a suriladi. Mehnatkash xalq bu orzu-umidlarini badiiy so'z xazinasida o'zining dunyo qarashi bo'yicha rivojlandirib boradi. ‘Hurlixo-Hamro’ dostoni to'lig'i bilan bilan qoraqalpoq xalqining haqiqiy dostonlaridan biri bo'lib, muhabbatni, odillikni kuylashi bilan xalqimizning sevimli asarlarining qatoridan joy olganligi bilan baholidir. a tizimli ishlash imkoniyatining mavjudligidir. O'qituvchi har bir o'quvchining individual xususiyatlarini aniqlab, unga mos metod va usullarni tanlaydi. ‘Xurlixo – Hamro’ dostonini o'rgatishda bu yondashuv ayniqsa muhim, chunki doston ijrosi nafaqat matnni yod olish, balki uni musiqiy va badiiy jihatdan ifodalashni ham talab qiladi.

Musiqqa maktablarida ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyati — darslarning asosan yakka tartibda tashkil etilishidir. Bu holat ayniqsa xalq og'zaki ijodiga mansub baxshichilik va dostonchilik san'atini o'rgatishda muhim metodik ustunlikni yuzaga keltiradi.

‘Xurlixo – Hamro’ dostonini o'quvchilarga o'rgatish jarayonida individual yondashuv nafaqat o'quvchining ijrochilik imkoniyatlarini ochib berishga, balki uning badiiy tafakkuri va

estetik dunyoqarashini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun o'qituvchi avvalo o'quvchining individual xususiyatlarini chuqur o'rganishi lozim.

Bunda uning ovoz diapazoni, tembri, musiqiy eshitish qobiliyati, ritmi his etish darajasi, matni yod olish tezligi hamda sahnaviy ifodaviyligi kabi omillar hisobga olinadi. Ushbu tahlil asosida har bir o'quvchi uchun individual o'quv trajektoriyasi ishlab chiqiladi. Bu yondashuv zamonaviy pedagogikada differensial va individual ta'lim tamoyillariga mos keladi.

Xurlixo – Hamro” dostonini o'rgatish jarayoni bir necha o'zaro bog'liq bosqichlarda amalga oshiriladi va har bir bosqich yakka dars sharoitiga mos ravishda tashkil etiladi.

1. Nazariy-tanishuv bosqichi Mazkur bosqichda o'quvchiga dostonning kelib chiqishi, tarixiy-madaniy ahamiyati, syujeti, asosiy g'oyasi hamda obrazlar tizimi haqida keng qamrovli ma'lumot beriladi. O'qituvchi suhbat, izohli bayon, savol-javob kabi metodlardan foydalanadi.

Keyingi bosqichda dostonning musiqiy xususiyatlari chuqur o'rganiladi. Baxshichilik ijrochiligiga xos bo'lgan ohangdorlik, ritmik tuzilma, melizmatik bezaklar, talaffuz aniqligi va nafas olish texnikasi individual tarzda o'rgatiladi. O'qituvchi o'quvchining ovoz imkoniyatlarini hisobga olgan holda mos tonallikni tanlaydi va ijro diapazonini bosqichma-bosqich kengaytiradi.

Masalan dostonni birinchi qo'shig'i:

Babajan, eshitgin arz-holimni,

Menga bir ochilgan yo'l deb yig'larman,

Sen qilmasang faryodimni, dodimni,

Bergan omonating ol deb yig'larman.

Bu qo'shiqni biz qoraqalpoq xalq qo'shig'i “Qiyalim” kuyiga solib ijro qilsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Qo'shiq bog'inlari va kuy tekstga tog'ri keladi. Melodik jihatdan ham ma'no va xarakteri jihatdan tog'ri kelgani uchun ya'ni qo'shiq va kuy ham munli bo'lgani uchun bir-biriga mos keladi.

Maqsadi: Poeziya va musiqa uyg'unligini anglash, badiiy estetikani kuchaytirish.

3. Emotsional tahlil usuliMetod: Har bir obrazga qanday musiqa yoki ohang mos kelishini aniqlash. Bu jarayonda “namuna – taqlid – mustaqil ijro” tamoyili asosida ish olib boriladi. Avval o'qituvchi namunali ijro ko'rsatadi, so'ng o'quvchi uni takrorlaydi va asta-sekin mustaqil ijroga o'tadi. Har bir mashg'ulotda kichik fragmentlar ustida ishlash orqali murakkablik darajasi oshirib boriladi. Yakka darslarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan:

audio va video yozuvlardan foydalanish, professional baxshilar ijrosini tinglash ,mobil ilovalar orqali ovoz yozish va tahlil qilish

multimediya taqdimotlar orqali dostonni vizuallashtirish

Bu vositalar o'quvchining mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi va o'rganish jarayonini qiziqarli qiladi.

Xulosa: “Xurlixo – Hamro” dostonini musiqa maktablarida yakka tartibda o'rgatish yuqori darajadagi metodik yondashuvni talab etadi. Individual ta'lim, ustoz-shogird an'anasi, bosqichma-bosqich o'rgatish tizimi hamda zamonaviy texnologiyalarning uyg'unligi o'quvchining ijrochilik mahoratini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijada o'quvchilar nafaqat dostonni ijro etish ko'nikmasiga ega bo'ladilar, balki milliy musiqiy merosga hurmat, badiiy tafakkur va estetik did kabi muhim sifatlarni ham egallaydilar.

Bu esa baxshichilik san'atining uzluksiz rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Q.Q.Jarimbetov Q.K.Orazimbetov "Qaraqalpaq a'debiyati" 2010 sabaqlıq
2. Qaraqalpaq folklorı Kóp tomlıq 9-13-tomlar. Tashkent, "Manaviyat", 200
3. Allanazarov D. "Xalıq baqsısı" Nókis "Avangard baspa" -2022-jıl.
4. Айымбетов Қ «Халық даналығы», «Қарақалпақстан», Баспасы Нөкіс 1
5. academicsbook.com